O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

# IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN TALABALARNI BILIMINI BAHOLASH UCHUN YAKUNIY NAZORAT ISH VA TEST SAVOLLARI TO'PLAMI

Noiqtisodiy oliy o'quv yurtlari va
fakultetlari uchun

TOSHKENT – 2005

74,202.5 Укитиш ва ўқув жараёнини ташкил этиш усуллари.

Ushbu yakuniy nazorat ish va test savollari to'plami «Iqtisodiyot nazariyasi» fanidan talabalar bilimini baholashning muhim uslublaridan biri hisoblanadi. Bunda har bir mavzuning asosiy dolzarb savollarini o'z ichiga olib, kishilik jamiyati tomonidan jamg'arilgan iqtisodiy nazariyaning hamma maktablariga oid iqtisodiy bilimlarini o'zida mujassamlashtirilgan.

Tavsiya etilgan yakuniy nazorat va test topshiriqlarini tuzishda oliy ta'limda «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini o'qitishning yangi dasturi, qo'llanilayotgan darslik, uslubiy qo'llanmalarga asoslanadi.

Savollarni to'g'ri javobini topish va uni yoritish uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlarini va «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bo'yicha o'tilgan barcha mavzularni o'qib chiqish va puxta o'rganish talab qilinadi.

Ushbu yakuniy nazorat va test savollari tizimi o'quv jarayonida o'qitishning ilg'or, zamonaviy uslublarini qo'llash va dasturdagi dolzarb masalalarni osonroq o'zlashtirish, iqtisodiyotning amaliyot bilan bevosita bog'liqligi va nisbatan qiyin savollarni soddalashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **i.f.d., prof. Egamberdiev F.T.**
**dots. Umarov K.Yu. (rahbar)**
**dots. Sodiqov N.K.**
**kat.o'q. Tursunov A.**

Mas'ul muxarrir: **i.f.n., dots. Xoshimov P.Z.**

ω 31783 0

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakul'teti O'quv – uslubiy Kengashining 2005 yil 18 may majlis qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

06 A 481 | Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
10

## YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi va uning asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
2. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti, maqsadi va vazifalarini yoritib bering.
3. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, ularning mohiyati va turlarini tavsiflab bering.
4. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullar qo'llaniladi?
5. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa iqtisodiy fanlar bilan qanday aloqadorligi bor?
6. Qanday mulkchilik munosabatlari va unsurlarini bilasiz?
7. Mulkchilikning qanday tur va shakllari mavjud?
8. Mulkni xususiylashtirishning maqsadi va amalga oshirish yo'llarini izohlang.
9. O'zbekistonda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning mohiyatini yoritib bering.
10. Mulkchilik munosabatlari rivojlanishi jarayonida milliy iqtisodiy mustaqillikning ta'minlanishini izohlab bering.
11. Mulkchilikning turli shakllarida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini asoslab bering.
12. Ijtimoiy xo'jalik shakllari: natural va tovar xo'jaligini tavsiflab bering.
13. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishining qanday shartlari bor va uning xossalari.
14. Mehnat unumdorligi va intensivligi tovar qiymati miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi?
15. Pulning mohiyati va vazifalari nimalardan iborat?
16. Inflatsiya nima va uning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib bering?
17. Pulni barqarorligini ta'minlashning asosiy omillari nimalardan iborat?
18. O'zbekistonda milliy valutani joriy etilishi va uning qadrini oshirish tadbirlarini gapirib bering.
19. Jamiyat oldida turadigan asosiy uch iqtisodiy muammoni yoritib bering.
20. Sotsial—iqtisodiy tizimlar va ularning rivojlanish mezonlari qanday?
21. Samaradorlik nima va uning mezonlarini ko'rsatib o'ting?
22. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini asoslab bering.

23. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning obyektiv zaruriyati nimada?
24. Bozor iqtisodiyoti amal qilishi uchun qanday shartlar kerak va uning tub belgilari nimalardan iborat?
25. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflab bering.
26. Bozor tuzilishi va tarkibiy qismlarini ko'rsating.
27. Bozor infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
28. Bozor nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
29. O'zbekistonda bozor islohatlari va uning tarkibiy qismlarini yoritib bering.
30. Bozor iqtisodiyotining rejali xo'jalikdan farqini ko'rsatib bering?
31. Ko'p ukladli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyotning erkinlashtirilishini tushuntirib bering.
32. Bozor subyektlarini tashkillashtirish tamoyillarini sanab o'ting.
33. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning tamoyillarini yoritib bering.
34. Talab va taklif qonunlarining mohiyatini yoritib bering.
35. Talab va taklifning elastikligi (egiluvchanligi) nima va unga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
36. Bozor muvozanatini yuzaga kelishini tushuntirib bering.
37. Talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib bering.
38. Ishlab chiqarishni rivojlantirishda kapitalning roli nimalardan iborat?
39. «Tadbirkorlik to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonunining ahamiyatini tushuntirib bering.
40. Hozirgi davrda O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ishlab chiqarish omillarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
41. Firmaning ishlab chiqarish sharoitida foydani ko'paytirish va xarajatlarni kamaytirish shart – sharoitlarini yoritib bering.
42. Ishlab chiqarish omillarini tejamli foydalanish yo'llarini ko'rsating.
43. Mukammal raqobat sharoitida yuqori darajada foyda olish yo'llari nimalardan iborat?
44. Firmaning ishlab chiqarish jarayonida foydani ko'paytirish va xarajatlarni kamaytirish shart – sharoitlari va omillarini izohlang.
45. O'zbekistonda iqtisodiy resurslardan tejamli va samarali foydalanish milliy iqtisodiyotni mustahkamlash garovi ekanligini asoslang.
46. Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiy tuzilishini izohlang.

47. O'zbekistonda raqobat muhitining shakllanishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday rol' o'ynaydi?
48. Narx – navoni belgilashda davlat siyosatining ahamiyatini asoslab bering.
49. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish zaruriyatini izohlang.
50. Monopol raqobat turlarini sanab o'ting.
51. Firma tadbirkorlikning eng ko'p tarqalgan asosiy shakllaridan biri ekanligini asoslab bering.
52. O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslari nimalardan iborat?
53. Tadbirkorlikni rivojlantirishning milliy xususiyatlarini tushuntirib bering.
54. Menejmentning mohiyati va uning vazifalari nimalardan iborat?
55. Ochiq va yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga ta'rif bering.
56. Ish haqi darajasiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
57. Mehnat bozoridagi raqobat va ish haqi to'lash qanday aniqlanadi?
58. Kasaba uyushmalarining mehnat munosabati va ish haqini shakllantirishdagi roli nimalardan iborat?
59. Qishloq xo'jaligida mehnatga haq to'lashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
60. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga haq to'lashni o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
61. Aholi turmush darajasi va uning ko'rsatkichlari qanday belgilanadi?
62. Davlatning ijtimoiy sohadagi siyosati qanday amalga oshirilmoqda?
63. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining sababi nimada?
64. Yalpi milliy ichki mahsulot va milliy daromad nima?
65. Milliy daromadning taqsimlanishini, qayta taqsimlanishini va foydalanishini qanday tushunasiz?
66. Iqtisodiy o'sish, uning mohiyati to'g'risida tushuncha bering.
67. Ish haqi turlarini sanab o'ting va har biriga izoh bering.
68. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotning mohiyatini tushuntirib bering.
69. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish yo'llari nimalardan iborat?
70. Milliy boylikning tarkibi nimalardan iborat?
71. O'zbekistonda investitsion siyosatning o'ziga xosligi.

72. Yerga bo'lgan mulkchilik va renta munosabatlarini tushuntirib bering.
73. Renta iqtisodiy kategoriya sifatida ekanligini tushuntirib bering.
74. Agrobiznes va uning turlarini tushuntirib bering.
75. O'zbekistonda dehqonchilik munosabatlarini qayta shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
76. Budjetning daromadlar va xarajatlar qismlari manbaalarini ko'rsating.
77. Fiskal siyosat. Keyinscha jami talabni tartibga solishni qanday tushunasiz?
78. Monetar siyosatni olib borishning mohiyatini izohlab bering.
79. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining shakllanishini ko'rsatib bering.
80. Inflatsiyaning mohiyati va turlarini yoritib bering.
81. Inflatsiyaga qarshi tadbir va choralar nimalardan iborat?
82. Inflatsiyaning Sosial – iqtisodiy oqibatlari nimalardan iborat?
83. Taklif inflatsiyasi qanday bo'ladi?
84. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashda klassik va keynschilar nazariyalarining mohiyati.
85. O'zbekistonda iqtisodiyotni tartibga solish shakllari va yo'nalishlarini ko'rsating.
86. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va obyektiv asoslari nimalardan iborat?
87. Davlatning iqtisodiy rivojlanishiga qarab tabaqalashuvi: rivojlangan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy etgan mamlakatlarga ta'rif bering.
88. Jahon xo'jaligining b'aynalmilallashuvining shakllari qanday?
89. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va ularning faoliyatini yoritib bering.
90. Valuta munosabatlari va valuta tizimiga ta'rif bering.
91. Valutaning konvertirlanishi va turlirini ko'rsating.
92. Valuta kursi nima va u qanday belgilanadi?
93. Xalqaro moliya – kredit tashkilotlari va ularning faoliyatini yoritib bering.
94. Insoniyat taraqqiyotida umumbashariy muammolarning mohiyati nimalardan iborat?
95. O'zbekiston Respublikasida ekologik muammolarning hal qilinish yo'llarini ko'rsating.
96. Kreditni turlari va shakllarini izohlab bering.
97. Soliq turlarini asoslab bering.
98. Moliya tizimi va uning vazifalarini aniqlang.
99. Markaziy va tijorat banklarini vazifalarini tushuntirib bering.
100. Agrar iqtisodiy siyosatning muammolari nimalardan iborat.

## "IQTISODIYOT NAZARIYASI" FANIDAN TEST SAVOLLARI TIZIMI

1. *Iqtisodiy nazariya mustaqil fan sifatida qachon vujudga kelgan?*
   a) feodalizm tuzumi davrida.
   b) kapitalistik tuzum paydo bo'lgan, milliy bozor shakllangan davrda.
   v) qadimgi dunyoda.
   g) XV–XVI asrlarda.
   d) XVI–XVII asrlarda

2. *Farbning hozirgi zamon iqtisodiy nazariyalarining asosiy yo'nalishlarini belgilang*
   a) o'ta yangi klassik, o'ta yangi keynschilik, institutsional–sotsiolog.
   b) merkantilizm, fiziokratlar, klassik burjua siyosiy iqtisodi, marksistik siyosiy iqtisod.
   v) bemitallizm, monitarizm, oltin standart.
   g) institutsionalizm, ekonometrika, marjinalizm.
   d) monetarizm, ekonometrika, liberalizm.

3. *Iqtisodiy nazariya fani nimani o'rgatadi?*
   a) iqtisodiyot nazariyasi jamiyatda yuz beradigan iqtisodiy hodisalar, jarayonlar, ularga xos bo'lgan aloqa bog'lanishlarni, ularning qonun va qoidalarini o'rgatadigan fandir.
   b) iqtisodiyot nazariyasi tabiatda yuz beradigan iqtisodiy xodisadir, jarayonlar va ularga xos bo'lgan aloqa bog'lanishlar, ularning qonun va qoidalarini o'rgatadigan fandir.
   v) iqtisodiyot nazariyasi kishilar faoliyatini o'rgatadigan fandir.
   g) iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarishni o'rgatadigan fandir.
   d) iqtisodiyot nazariyasi almashuv munosabatlarini o'rgatadigan fandir.

4. *Iqtisodiy jarayonlarni o'rganish usullarini ko'rsating.*
   a) eksperiment, so'rov, kuzatish va boshqalar.
   b) ilmiy abstraksiya, mantiqiylik va tarixiylik birligi, induktsiya, deduktsiya va boshqalar.
   v) statistik usullar, grafik, jadval va boshqalar.
   g) iqtisodiy jarayonlarni taqqoslash.
   d) iqtisodiy munosabatlarni taxlil etish.

5. ***Mazkur fan o'z predmetini qanday kategoriyalar orqali o'rganadi?***

a) mazkur fan o'z predmetini tezlik, massa va hokazolar orqali o'rganadi.
b) mazkur fan o'z predmetini umumiqtisodiy qonunlar va kategoriyalar orqali o'rganadi.
v) mazkur fan o'z predmetini boshqa fanlar orqali o'rganadi.
g) mazkur fan o'z predmetini iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali o'rganadi.
d) mazkur fan o'z predmetini iqtisodiy jarayonlar orqali o'rganadi.

6. ***Iqtisodiy qonunlarning mohiyati?***

a) davlat tomonidan chiqarilgan huquqiy qoidalar bo'lib ular davlatning iqtisodiyotga ta'sir etish vositasidir.
b) ishlab chiqarishda kishilarning irodasiga bog'liq bo'lgan aloqalar.
v) iqtisodiy jarayonlarning turli tomonlari o'rtasidagi takrorlanib turadigan sabab – oqibat, aloqa bog'lanishlari.
g) ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlanib borishni ta'minlash uchun yaratilgan.
d) iqtisodiy munosabatlarning ichki qonuniyatlarini o'rgatadi.

7. ***Umumiqtisodiy kategoriyalarga tushuncha bering.***

a) iqtisodiyotning ma'lum bosqichida amal qiladigan kategoriyadir.
b) tovar ishlab chiqarish davriga xos bo'lgan kategoriyadir.
v) iqtisodiy taraqqiyotning hamma bosqichlariga xos bo'lgan umuminsoniy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir.
g) bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan kategoriyadir.
d) aralash iqtisodiyotga xos bo'lgan kategoriyalar.

8. ***Hozirgi zamon iqtisodiy nazariyasining asosiy yo'nalishlarini aniqlang.***

a) merkantalizm, fiziokratlar.
b) klassik, siyosiy iqtisod.
v) o'ta yangi liberalizm, o'ta yangi keynschilik, institutsional – sotsiologik.
g) opportunizm va reformizm (isloxotchilik).
d) neoklassik, opportunizm, institutsional – sotsiologik.

9. ***Ehtiyoj deganda nimani tushunasiz?***

a) inson hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlar.

b) iqtisodiy ehtiyojlar.
v) Sosial ehtiyojlar.
g) madaniy ehtiyojlar.
d) kundalik ehtiyojlar.

10. *Sosial ma'naviy ehtiyojlar deganda nimani tushunasiz?*
a) ular asosan xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lib o'qituvchi, shifokor, san'atkor va h.k.lar xizmatlariga bo'lgan ehtiyojdir.
b) ular moddiy ko'rinishga ega bo'lib, ko'ylak, kostyum, pal'to, tufli kabilarga bo'lgan ehtiyojdir.
v) insonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan kiyim—kechak, oziq—ovqat, turar joy, transport, aloqa kabilarga bo'lgan ehtiyojdir.
g) insonlarda mehnat qilish, ijod etish, o'z qobiliyatini ishga solib elga tanilish ehtiyojidir.
d) ularga asosan kundalik hayotdagi iste'mol buyumlari kiradi.

11. *Moddiy ehtiyojga tushuncha bering.*
a) moddiy ehtiyojga kishilarning zebi ziynatga bo'lgan ehtiyojidir.
b) kishilarning uy—joyga bo'lgan ehtiyoji.
v) kishilarning yangi modalarga bo'lgan ehtiyojidir.
g) moddiy ehtiyoji hayotiy bo'lib oziq—ovqat, kiyim—kechak, turar—joy, transport va h.k.
d) kishilarning kasbiy ehtiyojlari kiradi.

12. *Iqtisodiy faoliyat nima degani?*
a) korxonalarni mehnat bilan ta'minlashdir.
b) inson tirikchiligini ta'minlash vositalari va usullaridir.
v) ishlab chiqarishni xom ashyolar bilan ta'minlashdir.
g) korxonalarni boshqa korxonalar bilan aloqasini o'rganishdir.
d) korxonalarni xom ashyo bilan ta'minlashdir.

13. *Iqtisodiy faoliyat nimadan boshlanadi?*
a) korxonalarni qurishdan.
b) moliya resurslaridan.
v) xom ashyodan.
g) ishlab chiqarishdan.
d) taqsimotdan.

14. *Ishlab chiqarish munosabatlarini aniqlang.*
a) ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlaridir.

b) ishlab chiqargan mahsulotni taqsimlash va iste'mol qilish shakllari yig'indisidir.
v) ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatdir.
g) ishlab chiqarish jarayonidagi almashuv munosabatlari.
d) ishlab chiqarish jarayonidagi iste'mol munosabatlari.

15. ***Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari nima?***
a) ishlab chiqarish binolari va inshoatlari.
b) ishlab chiqarishning shaxsiy va ashyoviy omillarning yig'indisi va o'zaro ta'siri.
v) ish kuchi, xom ashyo va yordamchi materiallar.
g) mehnat vositalari.
d) mehnat predmetlari.

16. ***Ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy omillarini ko'rsating.***
a) mehnat vositasi, mehnat predmeti, ish kuchi.
b) asbob uskunalar, mashinalar, mexanizmlar,uzatuvchi apparatlar.
v) xom ashyo va materiallar, yarim fabrikatlar, texnologiya.
g) kapital, mehnat, yer va tadbirkorlik qobiliyati.
d) mehnat qurollari, transport, turli mexanizmlar.

17. ***Ish kuchi deganda nimani tushunasiz?***
a) mehnat jarayonida inson energiyasining sarflanishi.
b) odamning jismoniy va aqliy qobiliyatlarining yig'indisi.
v) insonning jismoniy qobiliyati.
g) insonning kasb malakasi.
d) insonning intelektual qobiliyati.

18. ***Ilmiy–texnika inqilobi nima?***
a) ilm va fan sohasining uzluksiz rivojlanishi.
b) ishlab chiqarish tajribasi, texnik yangiliklar, ixtirolar, tijorat axborotlari majmuasi.
v) insonning mehnat predmetlariga, ishlab chiqarish vositalarining mexanik, fizikaviy va ximiyaviy xususiyatlariga asoslangan ta'sir etish usullari.
g) ilm, fan va texnikada chuqur sifat o'zgarishlar joriy qilish.
d) yangi ixtiro va kashfiyotlarni yaratish.

19. ***Ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy maqsadi nimadan iborat?***
a) ehtiyojlarni qondirish.

b) iqtisodiy taraqqiyotga erishish.
v) bozorni tovarlar bilan to'ldirish.
g) moddiy ne'matlar ishlab chiqarish.
d) nomoddiy sohalarni rivojlantirish.

20. ***Ishlab chiqarishni intensivlashning mohiyati nimadan iborat?***
a) ishlab chiqarishni yiriklashtirish.
b) yangi korxonalar qurish va ishchilarning sonini oshirish.
v) bor mablag'lardan rasional foydalanish.
g) yangi texnika va texnologiyani joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.
d) mavjud resurslardan tejamli va optimal foydalanish.

21. ***O'zbekistonda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari nimalardan iborat?***
a) korxonada maxsulot ishlab chiqarishni muddati va sifatini yaxshilash.
b) mavjud korxona va xo'jaliklarni samaradorligini ta'minlash.
v) eksportni oshirish.
g) chet el kapital investitsiyani va yangi texnikani joriy qilishni ta'minlash.
d) ishlab chiqarishga qo'shimcha investitsiyani jalb etish.

22. ***Mehnat unumdorligi qanday o'lchanadi?***
a) kishilarni ko'proq mehnatga jalb etish orqali.
b) mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqt orqali.
v) yaratilgan mahsulotni pulda ifodalash orqali.
g) vaqt birligida yaratilgan maqsulot miqdori orqali.
d) kishilarning malakasini oshirishda.

23. ***Tovar deb nimaga aytiladi?***
a) foydalanish kerak bo'lgan barcha buyumlar.
b) shaxsiy iste'mol uchun yaratilgan mahsulot.
v) iste'mol qiymatga ega bo'lgan ayriboshlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot.
g) qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar.
d) ijtimoiy iste'mol uchun yaratilgan maxsulotlar.

24. ***Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelish shart–sharoitlari.***
a) mulk shakllarining xilma–xil bo'lishi.
b) mehnat taqsimoti va ishlab chiqaruvchilarning alohidalashganligi.

v) ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va mehnat kooperatsiyasi.
g) raqobat.
d) ishlab chiqarishning ijtimoiylashuvchi va ixtisoslashuvi.

25. ***Tovar va uning xossalarini ko'rsating?***
a) foydalilik va foydasizlik xossasiga.
b) iste'mol qiymati va qiymatga.
v) almashuv qiymati va qiymatga.
g) faqat iste'mol qiymatiga.
d) foydalilik va istemol qiymatiga.

26. ***Tovarda mujassamlashgan mehnatning ikki yoqlama xarakteri.***
a) xususiy va ijtimoiy mehnat.
b) oddiy va murakkab mehnat.
v) konkret va abstrakt mehnat.
g) shaxsiy va jamoa mehnat.
d) individual va guruhiy mehnat.

27. ***Tovar qiymatining miqdori nima bilan belgilanadi?***
a) ishlab chiqarish sharoitlari bilan.
b) tovarni ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan.
v) ishlab chiqarish omillariga ketgan xarajatlar bilan.
g) tovarlarning foydaliligi bilan.
d) tovarlarning iste'molni qondirishi bilan.

28. ***Mehnat intensivligini qanday tushunasiz?***
a) mehnatni ma'lum bir ixtisoslashgan texnologiya asosida tashkil etish.
b) ishchining belgilangan normadan ortiq ish bajarishi.
v) vaqt birligida ish kuchining sarflanishi.
g) vaqt birligida qo'llanilgan mehnat vositalari.
d) mehnat qurollarini yangilanishi.

29. ***Qachon tovar qiymatining miqdori pasayadi?***
a) mehnat intensivligi oshganda.
b) mehnat unumdorligi pasayganda.
v) mehnat unumdorligi oshganda.
g) mehnat intensivligi pasayganda.
d) ishchi kuchidan unumli foydalanilganda.

30. *Pulni qanday tushunasiz?*

a) hamma tovarlarga ayriboshlanadigan umumiy ekvivalent vazifasini bajaruvchi tovar.

b) qiymatini boshqa tovarlarda ifodalaydigan buyum.

v) tovar qiymatini ifodalovchi o'lchov birligi.

g) pul tovar ayriboshlash taraqqiyotining maxsuli.

d) chek, veksel, elektron pul.

31. *Qiymat qonunining mazmuni.*

a) tovarning qiymati ishlab chiqarish xarajatlari bilan belgilanadi.

b) tovar qiymati uning foydalilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

v) tovarlarni ishlab chiqarish va ayriboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi.

g) oldi–sotdi munosabatlari.

d) almashuv munosabatlari.

32. *Pul tizimining tarkibiy qismlarini belgilang.*

a) pul birligi.

b) baho masshtabi.

v) qonuniy to'lov kuchiga ega bo'lish.

g) pul bosib chiqarish.

d) pul massasi.

33. *Iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?*

a) ehtiyojlarni qondirish uchun ko'proq resurslarni jalb etish.

b) ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishning ko'payib borishi.

v) ehtiyojlarni qondirish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish.

g) ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarishga ishchilarni ko'proq jalb etish.

d) ishlab chiqarishga qo'shimcha xom ashyo resurslarini jalb etish.

34. *Iqtisodiy o'sish turlarini aniqlang.*

a) tez sur'atlar bilan o'sish.

b) ekstensiv va intensiv o'sish.

v) ishlab chiqarish rejasini ortig'i bilan bajarish.

g) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish.

d) o'rtacha sur'atlar bilan o'sish.

**35.** ***Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?***

a) tabiiy va mehnat resurslarining miqdori va sifati, ishlab chiqarish fondlarining tarkibi va xajmi, texnologiya darajasi.
b) korxonalarning katta va kichikligi.
v) korxonalarning chet el investitsiyalarini jalb etish darajasi.
g) korxonalardagi ishchilar soni.
d) korxonadagi texnika va mehnat qurollarini yangilash.

**36.** ***Milliy boylik deganda nimani tushunasiz?***

a) asrlar davomida avlodlar mehnati bilan yaratib kelingan moddiy va ma'naviy – madaniy boyliklar, tabiat in'omi hamda to'plangan bilimlar yig'indisi.
b) mamlakatimizda mustaqillik yillarida bunyod etilgan moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi.
v) O'zbekistondagi tarixiy obidalar, transport, temir yo'l va boshqa boyliklar yig'indisi.
g) tabiiy boyliklar, tarixiy obidalar, infrastruktura.
d) b va v.

**37.** ***Mulkchilikni qanday tushunasiz?***

a) amal qilib turgan turli mulk shakllarining yig'indisi.
b) mulkchilik munosabatlari – jamiyatdagi boyliklardan foydalanish sohasidagi munosabatlardir.
v) kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalarini o'zlashtirish yuzasidan bo'ladigan munosabatlar.
g) mulkni taqsimlash jarayoni.
d) mulkni amalga oshirish yo'llari.

**38.** ***Mulkchilik obyektini ko'rsating.***

a) mol – mulkka aylangan barcha boylik turlari.
b) mulkiy munosabatlarning ishtirokchilari.
v) mehnat qobiliyati.
g) ishlab chiqarish imkoniyati.
d) ishlab chiqarish darajasi.

**39.** ***Mulkchilik subyektini ko'rsating.***

a) yer, suv, kon, asbob – uskuna, bino va xokazo.
b) mulkni o'zlashtirishda qatnashuvchilar.
v) faqatgina davlat mahkamalari.
g) shaxsiy mulk.
d) oila mulki.

40. ***Mulk shakllarini to'g'ri ko'rsating.***

a) shaxsiy va xususiy mulk.
b) jamoa, davlat va koloperativ mulk.
v) shaxsiy va xususiy mulk, jamoa mulki, davlat mulki, aralash mulk, qo'shma korxonalar mulki.
g) shaxsiy mulk va qo'shimcha mulk shakllari.
d) ijtimoiy tashkilotlar mulki.

41. ***O'rmondagi daraxtlar, mevalar, daryodagi baliqlar, dengiz bo'yidagi cho'milish joylari...***

a) shaxsiy mulk.
b) umumxalq mulki.
v) xususiy mulk.
g) oila mulki.
d) individual mulk.

42. ***Mulk shakllarini to'g'ri ko'rsating.***

a) shaxsiy va xususiy mulk.
b) jamoa, davlat va koloperativ mulk.
v) shaxsiy va xususiy mulk, jamoa mulki, davlat mulki, aralash mulk, qo'shma korxonalar mulki.
g) shaxsiy mulk va qo'shimcha mulk shakllari.
d) ijtimoiy tashkilotlar mulki.

43. ***Xususiylashtirishni qanday tushunasiz?***

a) bozorning mavjud bo'lish shartlaridan biri.
b) mulkdorlik huquqining davlat qo'lida saqlanib turishi.
v) davlat mulkini boshqa mulk shakllariga aylanishi.
g) ijara va fermer xo'jaliklari tuzish.
d) kichik korxonalar qurish.

44. ***Aralash iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?***

a) shaxsiy turdagi iqtisodiy munosabatdir.
b) davlat turidagi iqtisodiy munosabatdir.
v) qo'shma korxonalar turidagi iqtisodiy munosabatdir.
g) turli xildagi mulkiy munosabatlarning ig'indisidan hosil bo'lgan munosabatdir.
d) yakka tartibdagi iqtisodiy munosabatlar.

45. ***O'zbekston Respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy qoidasi nimadan iborat?***

a) amaldagi qonun darajasida mustaqil faoliyat yuritish.
b) faoliyat yuritishdagi mustaqillik, erkinlik.

v) yollanib ishlayotgan xodimlarning ijtimoiy va tibbiy sug'urta qilish.
g) o'z tadbirkorlik tashkilotini ta'sis etish.
d) turli mulk shakllarining teng huquqliligi.

***46. Tadbirkorlik faoliyatini qanday tushunasiz?***
a) amaldagi qonunlar doirasida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish orqali daromad topishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.
b) pul yoki qimmatbaho buyumlarni bankka qo'yib, daromad olish.
v) yerni ijaraga berib pul topish.
g) yollanib ishlash orqali daromad olish.
d) mulkni ijaraga berib daromad olish.

***47. Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri ajratib ko'rsating.***
a) moddiy resurslarga sarflangan mablag'.
b) ishchiga mehnat uchun to'lanadigan pul.
v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omillarini sotib olishga ketgan xarajatlar.
g) muomala xarajatlari.
d) transport xarajatlari.

***48. Foydani qanday tushunasiz?***
a) tovarni sotishdan kelib tushgan pul.
b) umumiy daromad bilan umumiy xarajatlar o'rtasidagi farq.
v) korxonaning bank hisobida turgan pul mablag'lari.
g) ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati.
d) qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik faoliyati.

***49. Bozor nima?***
a) tovarni ishlab chiqarish munosabatlari.
b) sotuvchilar bilan xaridorlarning tovarlarni pul yordamida ayriboshlash.
v) barcha tovarlar va xizmatlarni iste'mol qiluvchilarni birlashtiruvchi mexanizm.
g) tovar va xizmatlar sotiladigan joy.
d) oldi—sotdi munosabatlari amalga oshiriladigan joy.

***50. Bozorning vazifalarini ko'rsating?***
a) talab va taklif nisbatini tartibga solish.
b) tovar va xizmatlar taqsimlanishini tartibga solish.
v) daromadlarni tartibga solish.

g) inflatsiyani bartaraf etish.
d) iqtisodiy rivojlanishga imkoniyatlar yaratish.

*51.* ***Bozorning asosiy turini aniqlang.***
a) mahsulot bozori.
b) qimmatbaho qog'ozlar bozori, resurslar bozori.
v) *mahalliy bozor, mintaqaviy bozor.*
g) a, b, v to'g'ri.
d) xom ashyo, resurslar bozori.

*52.* ***Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz?***
a) uzluksiz iqtisodiy o'sishga erishuvchi iqtisodiyot.
b) tovar – pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar asosida boshqariladigan iqtisod.
v) ijtimoiy ishlab chiqarishning II – bo'linmasi.
g) faqat davlat tomonidan boshqariladigan iqtisodiyot.
d) erkin va tartibga solinadigan iqtisodiyot.

*53.* ***Bozorning mohiyati nimadan iborat?***
a) bozor almashuvini amalga oshiradi.
b) bozor tovar ishlab chiqarish kategoriyasidir.
v) aholini iste'mol mollari bilan ta'minlaydigan joy.
g) bozorda savdo – sotiq munosabatlari sodir bo'lishi.
d) aholini oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash.

*54.* ***Bozor muvozanatini qanday tushunasiz?***
a) tovarlarning pul bilan ta'minlanganligi.
b) bozordagi talab va taklifni o'zaro muvofiq kelishi.
v) rejali ishlab chiqarish.
g) erkin narxlar.
d) bozorni maxsulotlar bilan to'ldirish.

*55.* ***Bozor infrastrukturasi deganda nimani tushunasiz?***
a) birjalar, transport va aloqa vositalari, xizmat ko'rsatish sohalari, banklar.
b) soliq inspeksiyasi.
v) kontsernlar, vazirliklar.
g) hamma javoblar to'g'ri.
d) transport, aloqa va xizmatlarni.

cc 481 O'zbekiston M

56. ***Bozorning qaysi bir vazifasi uning o'z–o'zini boshqaruvchi sistema ekanligini ifodalaydi?***

a) bozor mulkiy munosabatlarini amalga oshirish shakli sifatida namoyon bo'ladi.
b) ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnatning jamiyat tomonidan mutlaq tan olinishi funktsiyasi.
v) ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lash funktsiyasi.
g) talab va taklifni tartibga solish.
d) yangi mulkiy munosabatlarni amalga oshirish shakli sifatida namoyon bo'ladi.

57. ***Bozor munosabatlarining mohiyati qanday holatlarda namoyon bo'ladi?***

a) raqobatning mavjudligida.
b) bozor munosabatlarida sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi bozor turlariga qarab amalga oshadigan iqtisodiy jarayonlarda.
v) ishlab chiqaruvchilarning erkinligini ta'minlash.
g) iste'molchilarning erkinligini ta'minlashda.
d) xizmatlarning erkinligi.

58. ***Bozorni etakchi belgisini ajrating?***

a) monopoliya.
b) iqtisodiy erkinlik.
v) integratsiya.
g) raqobat.
d) kooperatsiya.

59. ***Bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi qanday amalga oshiriladi?***

a) narx – navoni belgilash orqali.
b) pul – kredit siyosati orqali.
v) davlatning ma'muriy tadbiri orqali.
g) bozor qonunlari orqali.
d) iqtisodiy qonunlar orqali.

60. ***Tovar birjasi nima?***

a) ma'lum doirada ulgurji savdo – sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat korxonasi.
b) bir necha tovarlar bilan chakana savdo – sotiqni amalga oshiruvchi tijorat korxonasi.
v) sotuvchilar bilan xaridorlarning faqat tayyor tovarlarni oldi – soldi qilish yuzasidan aloqalari.
g) tovarlarni sotish jarayonidagi vositachilik.

d) tovarlarni ko'plab miqdorda sotadigan joy.

**61. *Bozorning mavjud bo'lish shartlarini ko'rsating.***

a) huquqiy qonunlar, nizomlar va boshqalar.
b) tadbirkorlik erkinligi, ishlab chiqarish vositalari va natijalariga egalik huquqi, raqobat.
v) chet el investitsiyasi.
g) xalqaro kredit.
d) davlat investitsiyasi.

**62. *Sof monopoliyani qanday tushunasiz?***

a) erkin bozor.
b) bozorda sotuvchi sifatida bir firma tanho hukmronlik qilishi.
v) ishlab chiqaruvchilar ko'p bo'ladi.
g) raqobat rivojlangan bo'ladi.
d) ishlab chiqarish rivojlangan bo'ladi.

**63. *Talab deganda nimani tushunasiz?***

a) insonning o'z ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarni sotib olish istagi.
b) to'lovga qobil, pul bilan ta'minlangan ehtiyoj .
v) bozorga keltirish mumkin bo'lgan tovarlar.
g) yashash uchun zaruriy mollar miqdori.
d) kishilar va jamiyatning kundalik ehtiyojlari.

**64. *Quyidagi buyumlarning qaysi biriga bo'lgan talab o'zgaruvchan bo'ladi?***

a) non, tuz, gugurt.
b) gilam, tilla bezaklari, avtobil'.
v) go'sht, shakar.
g) madaniy—maishiy buyumlar.
d) zeb—ziynat buyumlari.

**65. *Taklif deganda nimani tushunasiz?***

a) muayyan paytda bozorda bo'lgan yoki unga etkazib berilishi mumkin bo'lgan tovarlar massasi.
b) ishlab chiqaruvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan mahsulotlar.
v) xaridorlar ehtiyojlarining bozorda namoyon bo'lishi.
g) turli mulk shakllari ishlab chiqargan mahsulot massasi.
d) bozorda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ko'payishi.

**66. *Talabga qanday omillar ta'sir qiladi?***

a) mehnat unumdorligi hamda ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi.
b) tovarlar narxi xaridorlar didi va daromadlari darajasi.
v) ishlab chiqarish xarajatlari texnologiyasi va yangiliklar.
g) soliqlar va resurslar bahosi.
d) mavsum va milliy xususiyatlar.

**67. *Tovarlarning nafligi deganda nimani tushunasiz?***

a) tovarning iste'mol qiymati.
b) tovarning qiymati.
v) tovarning narxi.
g) tovarning nafligi uning iste'mol etishda xaridor oladigan qoniqish.
d) tovarlarning foydaliligi.

**68. *Baho deganda nimani tushunasiz?***

a) tovar bahosining puldagi ifodasi.
b) tovar yaratilishida moddiylashgan mehnat sarfining pulda ifodalanishi.
v) tovar qiymatining puldagi ifodasi.
g) xaridor va sotuvchi kelishgan baho.
d) ishlab chiqarishga ketgan harajatlar.

**69. *Narx—navoni shakllantiruvchi omillarini ajratib ko'rsating.***

a) qiymat, talab va taklif, raqobat, tovarlarning nafliligi.
b) mehnat unumdorligi, xaridor va sotuvchilar soni.
v) ishlab chiqarish xarajatlari.
g) qadoqlash va transport xarajatlari.
d) qiymat, mehnat unumdorligi, transport harajatlari.

**70. *Chakana narx nima?***

a) ishlab chiqaruvchi tomonidan katta miqdordagi tovarni bir yo'la ko'tarasiga xarid etuvchiga sotilgan paytda qo'llaniladigan narx.
b) iste'mol tovarlari bevosita aholiga sotiladigan narx.
v) davlat budjet hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narx.
g) korxonalar o'rtasida qo'llaniladigan narx.
d) ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilangan narx.

**71. *Muvozanat narxni qanday tushunasiz?***

a) xaridorlar tomonidan tovarni sotib olish uchun ma'qul bo'lgan narx.

b) bozordagi talabni o'zgartirishiga qodir bo'lgan firmalar tomonidan qo'yilgan narx.
v) sotuvchi va xaridorlar aloqasi natijasida shakllanadigan narx.
g) davlat korxonalari ishlab chiqargan mahsulotlar narxi.
d) dehqon bozorlaridagi shakllangan narhlar.

72. *Qanday bahoni ulgurji baho deyiladi?*
a) korxona yoki tovar etkazib beruvchining xaridorga ko'tarasiga sotilishi – ulgurji baho deyiladi.
b) sotuvchi uchun eng ko'p foyda keltiruvchi baho – ulgurji bahodir.
v) xarajatlarni qoplash va yuqori foyda beruvchi baho – ulgurji baho deyiladi.
